

## IQBOL MIRZONING “BONU” ROMANIDA BADIY ASAR TILI

*Guliston davlat universiteti 1- kurs talabasi  
Usmonqulova Sevinch Umidjon qizi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada zamonaviyy o’zbek adabiy jarayonining iste’dodli vakili Iqbol Mirzoning “Bonu” asaridagi badiy asar tili hikoyachi (roviy), muallif va personaj nutqi, foydalanilgan leksik resurslar ochib berilgan. Shu bilan birga yozuvchining uslubi haqida ham aytib o’tilgan .

**Kalit so‘zlar:** hikoyachi, roviy, personaj nutqi, badiy asar tili, detal, neologizm, istorizm, arxaizm.

M.Gorkiy adabiy asar tili atamasiga to’xtalib, quyidagi fikrni bildirgan: “Garchi bu til mehnatkash ommanning so’zlashish tilidan olingen bo’lsa-da, o’zining bosh manbaidan tamomila farq qiladi. Chunki tasvirlash yo’li bilan ta’riflar ekan , yozuvchi o’zaro so’zlashishda ishlatiladigan barcha tasodifiy, vaqtincha kirib kelgan , mantiqsiz, fonetik jihatdan buzuq , turli sabablarga ko’ra asosiy “talabga”, ya’ni umumxalq tili tuzilishiga to’g’ri kelmaydigan so’zlarni olib tashlaydi”.

Keltirilgan fikrga ko’ra, Iqbol Mirzo ham umumxalq tilidan foydalanib, o’z uslubini paydo qiladi. O’zbekiston Respublikasi san’at arbobi Ibrohim G’ofurov: Roman shu yaqin kunlar, bozor iqtisodi, globallashuv davri hayoti va bu hayotning serpo’tana, sertaxlika, seraldov, serro’yo voqealari va bu dog’uli voqealarni harakatga solgan, ularni xarakterli qilgan odamlarni sahnaga olib chiqqan, - deb aytib o’tgan. Asar voqealari to’la holida bosh qahramon – Bonu tilidan hikoya qilinadi va bu roviy tilini yuzaga keltiradi. O’zaro suhbatlarda esa personaj nutqini uchratishimiz mumkin. Tushlikdagi obi-yovg’onni shosha-pisha yutib, yana paykalga oshiqardim. Bu jihatim muallimlarimga ma’qul tushsa-da, talabalarning g’ashiga tegar , atay menga tegizib bittasi: “Ibi , xudojonim, ordona, ishqilib jo’yalarni arasiga yiqilib qomasam go’rgaydi“, desa, boshqasi “Pulni deb tomdan tashaydigonlarni joni so’lkavoydan qattiq bo’ladi”, deb piching otardi. Yuqoridagi parchadan ko’rishimiz mumkin-ki, asarda shevadan unumli foydalanilgan. “Ibi”, “qomasam” kabi so’zlar voqealarning yanada hayotiy bo’lishini ta’milagan. “Ordona” birligi bilan esa yengilgina vulgarizm yuzaga kelgan. Asar epik shaklda bayon qilingan bo’lib, ko’p qismlarida keltirma she’rlarga duch kelamiz. Ular o’zlari izohlab kelgan holatga liriklik, hissiyot bilan kirib keladi-da, o’quvchini badiy olamga chuqurroq sho’ng’ishini ta’milaydi. Bonu Olmosni sevib , aql-u hushini yo’qotib qo’ygan vaqt Xuvaydodan “Ishq- rohatmi, azobmi? Lazzatmi, izardrobmi? Telbalikmi, xorlikmi? Jonga xaridorlikmi? “4 bayti keltiriladi va qahramonning yuragini yoqatotgan sabab – Ishqqa ta’rif berib o’tiladi. “Yana, dilyaqinlik uyg’onishiga sabab, qon-qonimizga singib ketgan yurtdoshlik

tuyg'usi bo'lishi ham mumkin. "Har kim o'z ko'mochiga qo'r tortadi" deymizku " 5, - qismida ajoyib aforizmdan foydalanilgan. Bu kabi misollar asarda juda ko'plab uchraydi. Hiloyachi tiliga qaraydigan bo'lsak, Bonu xayolan gapiradi, ya'ni voqealarni tasavvuridagi o'zi yaratib olgan "aka"sigi so'zlab beradi va ular kundalik shaklida yoziladi. Bu kabi bayon qilish orqali xalqchillik , obrazlilik, ayniqsa, emotsionallik kuchli ifodalangan .Bular monologlar tarzida bayon etilgan bo'lib, yana dialoglar ham badiiy asar voqealarini qizg'in harakatga keltiradi.

“– Qarang-a, ming yillar davomida “xudo” deganingiz yer tagida g'ing demay yotganiga qoyil! “Bu halol, mol go'shti, “vov-vov” emas”. Umumxalq tili butun asarga ko'rk bag'ishlab turgan. Keltirilgan misollardagi hazil aralash kesatiq , ikkinchi parchadagi bolalarcha soddalik kitobxonda, albatta, voqealarga nisbatan ishonch uyg'otadi. Bonu adabiyotga oshnoligi sabab, o'z hayotini obrazlilik-badiiylik bilan hikoya qilib beradi. Undagi o'xshatish, qochirim, varvar, vulgar, sifatlash, she'rdan parchalar keltirish - barchasi Iqbol Mirzoning individual til uslubini yaqqol ko'rsatgan. Aynan bosh qahramon tilidan hikoya qilish esa asarga kirish, voqealarda yashash, qahramonning ruhiy holatini to'la his qilib, tushunishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, Iqbol Mirzoning “Bonu” asari barcha uchun tushunarli, sof tili, shevalarimizni o'zida jamlagani, aldovlardan yiroq bo'lib, xuddi real voqealarni tasvirlagani, yozuvchining beqiyos tasvirlash uslubi bilan o'zbek nasrida o'z o'rniqa egadir. Yuqoridagilar sabab ham asar kitobxonlar ko'nglidan joy olib bormoqda .

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. M.Gorkiy. Adabiyot haqida. T., O'zdavnashr, 1962, 240-bet.
2. I.G'ofurov. Iqbol Mirzoning “Bonu” romani haqida. 2018-yil.